



FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 22-dekabr

177-11-163-F/25

Farg‘ona tumani hokimligi

“Chimyon” dehqon bozorini vaqtinchalik ko‘chirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-avgustdagi “Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga solishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 253-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Umumiy qoidalari” talablaridan kelib chiqib, bugungi kunda tumanning “Soy bo‘yi” MFY hududidagi “Chimyon” dehqon bozori faoliyatini vaqtincha to‘xtatish hamda “Valley Agrotechins” MCHJ qoshidagi “Yangi Chimyon” savdo majmuasiga ko‘chirish to‘g‘risida

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-avgustdagi 253-sonli qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida tuman Ichki ishlar bo‘limi, tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi, tuman ekologiya bo‘limi hamda tuman SEO va JS bo‘limining tegishli xulosalari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Chimyon hududi markazida mavjud “Chimyon” dehqon bozorining faoliyati bugungi kunda qonun hujjatlarida belgilangan talablariga mos emasligi, hususan dehqon bozorining tegishli yer uchastkasi mavjud emasligi bois asosiy yo‘l qismida faoliyat ko‘rsatib kelayotganligi natijasida ushbu hududda aholi qatnovi va transport harakatida real xavf-xatarlarni hamda yo‘l-transport hodisalarini keltirib chiqishiga sabab bo‘layotganligi, shuningdek, mazkur dehqon bozori hududida sanitariya-gigiyena talablariga to‘liq rioya etilmasdan faoliyat ko‘rsatib kelinayotganligi sababli, “Chimyon” dehqon bozori faoliyati vaqtincha to‘xtatilsin.

3.“Chimyon” dehqon bozori hududida faoliyat olib borayotgan sotuvchilar tumandagi Chimyon MFY Mustaqillik ko‘chasi, 8-uyda joylashgan “Valley Agrotechins MCHJ qoshida yangi qurib bitkazilgan “Yangi Chimyon” savdo majmuasiga vaqtinchalik ko‘chirilsin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O. Abduraximov tuman Ichki ishlar bo‘limi (M. Qunduzov), “Chimyon” dehqon bozori (M. Qo‘ldashev)lar hamda tegishli tashkilotlar bilan birga:

-aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rish;

-“Chimyon” dehqon bozori faoliyatini 2025-yil 22-dekabr kunidan hududda joylashgan “Valley Agrotechins” MCHJ qoshidagi “Yangi Chimyon” savdo majmuasiga vaqtinchalik ko‘chirish;

- Viloyat Dehqon bozorlari va savdo komplekslari uyushmasiga “Chimyon” dehqon bozorini “Yangi Chimyon” savdo majmuasiga vaqtinchalik ko‘chirish masalasi yuzasidan belgilangan tartibda tegishli takliflar kiritish;

- “Yangi Chimyon” savdo majmuasida doimiy yoki vaqtinchalik asosda faoliyat ko‘rsatadigan hamda savdo rastalari, savdo o‘rinlari va turg‘un savdo shoxobchalaridan foydalangan holda keng turdagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning chakana savdosi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirilsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (A. Ergashev), “Vodil yog‘dusi” gazetasi (S. Dadaxo‘jayev)larga

- vaqtinchalik ko‘chirilgan “Yangi Chimyon” savdo majmuasidagi yaratilgan shart-sharoitlar, savdo faoliyatini amalga oshirish uchun mavjud infratuzilma va qulayliklar to‘g‘risida aholi qatlamlari hamda bozorda faoliyat yuritayotgan sotuvchilarga ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa axborot kanallari orqali keng yoritib borish vazifasi topshirilsin.

6. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilib borishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T